


# KASB-HUNAR TA'LIMI

ILMIY-USLUBIY, AMALIY, MA'RIFIY JURNAL

2024, № 6-son



# KASB-HUNAR TA'LIMI

Профессиональное образование  
Professional education

Ilmiy-uslubiy, amaliy, ma'rifiy jurnal  
2024-yil, 6-son

## Muassislar:

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi,  
Pedagogik innovatsiyalar, professional ta'lim  
boshqaruv hamda pedagog kadrlarni qayta  
tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti

**Bosh muharrir:** Z.Y.XUDAYBERDIYEV

**Ijrochi direktor:** H.SIROJIDDINOV

## Tahrir hay'ati:

M.XOLMUXAMEDOV, R.X.JO'RAYEV,  
A.Q.JALALOV, A.R.XODJABAYEV  
J.SH.SHOSALIMOV, A.NABIYEV,  
A.A.HASANOV, H.SIROJIDDINOV,  
K.M.GULYAMOV

Jurnal 2000-yildan nashr etila boshlangan.  
O'zbekiston matbuot va axborot agentligida  
2007-yil 3-yanvarda qaytadan ro'yxatga olinib,  
0109-raqamli guvohnoma berilgan.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar  
Mahkamasi huzuridagi Oliy Attestatsiya komissiyasi  
tomonidan 2017 yil 29 avgustdagi 241/8 qarori  
bilan Pedagogika fanlari bo'yicha dissertatsiyalar  
yuzasidan asosiy ilmiy natijalarni chop etishga  
tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

**Manzil:** 100095, Toshkent sh., Olmazor tumani  
Universitet ko'chasi, 2-uy  
**Tel.:** 90-979-75-89; 94-677-90-32;

**E-mail:** kasbhunartalimi@mail.ru,  
ksbjurnal@inbox.uz.

## Nashr uchun mas'ul

H.Sirojiddinov

## Sahifalovchi:

I.Sirojiddinov

Tahririyat fikri muallif nuqtai nazariga to'g'ri  
kelmasligi mumkin.

Tahririyatga yuborilgan maqolalar tahrir etilmaydi  
va egasiga qaytarilmaydi.

Jurnaldan ko'chirib bosilganda "Kasb-hunar ta'limi"  
jurnalidan olingani izohlanishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 17.06.2024-yil.  
Bichimi 60x84 1/8

Bosma tabog'i 10. Adadi 60 nusxa.  
Buyurtma "PROFIEDUPRESS" MChJ  
bosmaxonasida chop etildi.

Korxonada manzili: Toshkent shahri, Sirg'ali tumani,  
Yangi Sirg'ali ko'chasi, 18-uy

# МУНДАРИЖА

Abdusattorova U.A. Maktabgacha yoshdagi bolalarni pedagogik innovatsiyalar yordamida kreativ fikrlashga o'rgatish jarayoni .....	3
Madaminova M.Q. Ta'limni o'zgartirish: ta'lim muassasalarida innovatsion menejmentning o'rni .....	7
Xakimov S.M. Oziq-ovqat ta'limi talabalarining laboratoriya va amaliy mashg'ulotlarini tashkil etish va boshqarishning didaktik imkoniyatlari .....	11
Berdiyev B.Ch. Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida milliy kurash vositasida sog'lom turmush madaniyatini rivojlantirishning pedagogik mazmuni .....	15
Umirzoqova M.B. O'quvchilarga matematik tushunchalarni o'rgatishda kvest texnologiyasi elementlaridan foydalanish metodikasi .....	19
Almamatova Sh. O'zbek tilini o'qitishda interaktiv metodlar .....	23
Doniyorova G.B. Pedagogik imidj tushunchasi va uning pedagogik ahamiyati .....	27
Aynazarova A.J. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida raqamli ko'nikmalarni rivojlantirish mexanizmlari .....	32
Karimov D.A. Axborotlashgan jamiyatda talabalarda vatanparvarlik kompetensiyalarini shakllantirishning didaktik imkoniyatlari .....	37
Berkinova Ch. Valeologik tushunchalarni shakllantirishning pedagogik mexanizmlari .....	42
Эрназарова М.Н., Жабборова Э.Р. Взаимосвязь между математикой и русским языком: Интердисциплинарные подходы в образовании .....	47
Xolmatova S.V. Pedagogik oliy ta'lim transformatsiyasi jarayonlarida talabalarni kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari .....	51
Pardayev O. Raxbar xodimlarda kommunikativ-liderlik kompetensiyalarini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari .....	56
Abdullaeva M., Mirxayitova S.I., Botirova M.M. Ta'lim tizimi rivojlangan xorijiy davlatlarda pedagogning kasbiy rivojlantirishga tayyorlash tajribasi .....	62
Aburaximov Sh.A. Gibril ta'lim: an'anaviy va raqamli ta'lim o'rtasidagi tafovutni bartaraf etish .....	66
Raximberdiyeva M.M. Oliy ta'lim muassasalarida xalq pedagogikasi fanini o'qitishning modulli texnologiyalarini takomillashtirish .....	69
Israilova Sh.J. Og'zaki nutqni rivojlantirishda o'qish ko'nikmasi (reading) dan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari .....	74
Мирзахмедов Ш.М. Ёшларни ҳарбий ватанпарварлик руҳида тарбиялашда оиланинг ўрни .....	78
Turdiyev U.Sh., Rashidov D.G., O'tkirov Sh.X. Laboratoriya klasteri tashkil qilish asosida ta'limni integratsiyalash .....	82
Abduraimov J.G' o'qituvchilarning elektron ta'lim resurslari va platformalaridan foydalanish tayyorgarligini ta'minlash sxemasi .....	85
Saidova G.E. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiya darslarida integrativ yondashuv asosida tarbiyalash .....	88
Matberdiyeva Y.B. Aksiologik yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining kognitiv fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning nazariy asoslari .....	93
Abdullayeva O.O. Bo'lajak pedagoglarda tadqiqotchilik ko'nikmasini shakllantirishning nazariy asoslari .....	97
Valixanov S.Sh. Jismoniy madaniyat yo'nalishi talabalarining kasbiy kompetentligiga qo'yiladigan talablar .....	101
Temurova G.X. Mehnat va predmetli amaliy ta'lim texnologiyasi fanining tarkibi, maqsad va vazifalari, metodlari va umumiy masalalari .....	105
Mamanazarov B.Q. Talabalarda "elektr va magnetizm" dan mustaqil ishlarni tashkil etish metodikasi .....	111
Ruziyeva N.Z. Inklyuziv ta'lim tamoyillari .....	114
Yuldashева Sh.B. Syujetli-ro'lli o'yinlar vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarda hamkorlik hissi shakllantirish pedagogik muammo sifatida .....	117
Qodirova X.N. Boshlang'ich ta'limda turkiy xalqlar an'anaviy sport o'yinlarining o'quvchilararo targ'ib etilishi .....	121
Choriyeva D.A. She'riyat orqali maktabgacha yoshdagi bolalarning umumiy bilim darajasini oshirish va xotirasini yaxshilash .....	126

<b>Turg'unboeva Z.I., Xasanov A.J.</b> Zaif eshituvchi o'quvchilarni kognitiv va nutqiy malakasini rivojlantirish bo'yicha innovatsion pedagogik texnologiyalar .....	129
<b>Qudratova Sh.B.</b> Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini shakllantirishda innovatsion texnologiyalarning o'rni .....	133
<b>Kudratova I.Z.</b> Autistik xususiyatlarga ega bo'lgan bolalar ta'lim dasturini yaratishdagi asosiy yondashuv tahlili .....	137
<b>Shaxbazova G.O.</b> Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining sport estetikasiga doir bilimlarini rivojlantirishning texnologik usullari .....	142
<b>Kabirova Z., Turdaliyeva M.</b> Nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarni nutqini rivojlantirish metodikasi .....	146
<b>Saidov A.H.</b> Umutga'lim maktablari rahbarlarining pedagogik jamoada pedagogik ziddiyatlarini bartaraf etish usullari .....	150
<b>Muhammadjonova D.F.</b> Maktabgacha yoshdagi eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni maktabga nutqiy tayyorlashda amaliy metodlarning o'rni .....	154
<b>Mahmudova S.A.</b> Bo'lajak pedagoglarda ijtimoiy-kreativ kompetentlikni rivojlantirishning integrativ modeli .....	161
<b>Asqarova M.R.</b> Bilogiyani o'qitishda individual ta'lim texnologiyalaridan foydalanish metodikasini shakllantirish .....	165
<b>Nazarov A.T.</b> Jismoniy madaniyatning pedagogik funksiyalarini samarali tashkil etishda sport turizmining o'ziga xos jihatlari .....	169
<b>Rajabov X.M.</b> Kimyo o'qituvchisining axborot-metodik kompetentligini takomillashtirishning didaktik imkoniyatlari .....	173
<b>Rizaeva X.U.</b> Mehnat tarbiyasini shakllantirishning pedagogic ahamiyati.....	178
<b>Sapayev I.B., Esanmurodova N.</b> Talabalarning individual ta'lim troektoriyasini amaliy ta'lim muhiti asosida shakllantirish .....	183
<b>Zaripova D.A.</b> Talimda smart texnologiyalarning qo'llanilishi .....	189
<b>Isakov J.A.</b> Bo'lajak muhandislarning konstruktiv kompetensiyalarini rivojlantirishning tizimli pedagogik shart va sharoitlari .....	195
<b>Parpieva U.H.</b> Terminologiya til so'z fondining bir qismi sifatida .....	200
<b>Gaynazarova G.A., Namazbayeva L.Z.</b> Rivojlanish markazlarida maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga milliy qadriyatlar asosida ta'lim-tarbiya berish .....	205
<b>Kamalova G.A.</b> Integratsion yondashuv asosida bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish samardorligi .....	212
<b>To'rabekova A.M.</b> Boshlang'ichsinf o'quvchilaridalingvistik kompetensiyalarni shakllantirishning mavjud holati .....	217
<b>Pulatova P.</b> Alohida ta'lim ehtiyoji bo'lgan o'quvchilarni kasb-hunarga doir mehnat tarbiyasi masalalari .....	224
<b>Rasulov E.M.</b> Elektron portfolio tizimi talabalarda metakognitiv fikrlashni rivojlantirish vositasi sifatida .....	229
<b>Xalilova D.F.</b> Bo'lajak tarbiyachilarning ijtimoiy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik mexanizmi .....	233
<b>Kamalov A.</b> Mafkuraviy targ'ibotni ijtimoiy-pedagogik tahlili .....	237
<b>Qayumova O.B.</b> Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ona tiliga oid lingvistik kompetensiyalarini takomillashtirishning nazariy asoslari.....	243
<b>Allaberdiyeva K.X.</b> Bolalarda innovatsion texnologiyalardan foydalanib ekologik ta'lim berish .....	250
<b>Abdullaeva D.N.</b> O'qituvchining pedagogik va psixologik qobiliyatlari.....	256
<b>Xasanov X.M.</b> "Informatika va raqamli texnologiyalar" fanini o'qitishda elektron ta'lim resurslarining ahamiyati .....	261
<b>Xurramova E.Sh.</b> Kesim va qirqim bajarishda yo'l qo'yadigan tipik xatolarning oldini olish .....	265
<b>Islomova G.M., Islomova Z.I.</b> Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tasviriy faoliyat vositasida bolalarning qobiliyatlari va ijodkorligini rivojlantirish .....	269
<b>Azimova F.</b> Нефть-газ саноатига оид терминларнинг ўзига хос хусусиятлари .....	273
<b>Xudoyqulova Sh.M.</b> Ta'lim oluvchilarda nostandart tafakkur muammosining o'rganilishi: tarixiy ekskurs .....	278

# BO‘LAJAK TARBIYACHILARNING IJTIMOYIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MEXANIZMI

XALILOVA DILNOZA FURKATOVNA  
TDPU o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tashkiloti bo'lajak tarbiyachilarining ijtimoiy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik mexanizmi ochib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Tarbiyachi, ta'lim, ijtimoiy kompetensiya, pedagog, malaka, ijtimoiylashuv.

**Аннотация:** В данной статье раскрывается педагогический механизм развития социальной компетентности будущих воспитателей дошкольных образовательных учреждений.

**Ключевые слова:** Педагог, образование, социальная компетентность, педагог, компетентность, социализация.

**Abstract:** This article reveals the pedagogical mechanism for the development of social competence of future teachers of preschool educational institutions.

**Key words:** Teacher, education, social competence, teacher, competence, socialization.

Kirish. Bo‘lajak tarbiyachining ijtimoiy kompetensiyasining asosiy elementi uning tarbiyalanuvchilar, hamkasblar va ota-onalar bilan o‘zaro munosabatlarga kirisha olishidir. Ijtimoiy faoliyatning muvaffaqiyati bo‘lajak tarbiyachida faollik, moslashuvchanlik, o‘zini-o‘zi boshqarish va xulq-atvor mexanizmlari qanchalik shakllanganiga va ijtimoiy munosabatlar ta’lim jarayonida kasbiy munosabatlarni qanchalik aks ettirishiga bog‘liqdir.

Tadqiqotning vazifasi bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy faoliyatda ijtimoiy va kasbiy kompetensiyasini shakllantirish bo‘yicha ishlar tizimini aniqlash edi. Vazifalar belgilangan maqsadlarga muvofiq shakllantirildi va bo‘lajak tarbiyachilarning murakkab ijtimoiy ko‘nikmalarini va o‘zaro munosabatlarni rivojlantirishni o‘z ichiga oldi. Ijtimoiy vaziyatlarda xulq-atvorning moslashuvchanligi, ijtimoiy o‘zaro munosabatlardagi maqsadlarga erishish qobiliyati, ijtimoiy va kasbiy ahamiyatga ega bo‘lgan fazilatlar va ularning integratsiyasi jamiyatda tez va etarli darajada moslashishga imkon beradi.

Maqsad va vazifalar tizimi bo‘lajak tarbiyachilarning ijtimoiy kompetensiyasini

rivojlantirish bo‘yicha ishlarni tizimli ravishda amalga oshirish imkonini berdi.


Eksperimental guruhlarda bo‘lajak tarbiyachilar uchun tadqiqot dasturiga muvofiq, ijtimoiy va kasbiy kompetensiyani rivojlantirish bo‘yicha ishlar tizimi ishlab chiqildi. Bular bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy faoliyati bo‘yicha ijtimoiy kompetensiyasini shakllantirishning bosqichma-bosqich tashkiliy-metodik asoslaridir.

Umuman olganda ta’lim tizimida quyidagi 6 ta asosiy kompetensiya o‘rganiladi. Bular: ijtimoiy, kommunikativ, ijtimoiy axborot, kognitiv - shaxsiy deb ham ataladi, madaniyatlararo, jumladan, millatlararo va maxsus [1].

Umuman olganda ta’lim tizimida quyidagi 6 ta asosiy kompetensiya o‘rganiladi. Bular: ijtimoiy

Ijtimoiy kompetensiya- yangi yechimlarni ishlab chiqish va ularni amalga oshirish, oqibatlar uchun javobgarlik, jamoa bilan shaxsiy manfaatlarining mutanosibligi, ota-onalar va jamoada sog'lom muloqotni tashkil etishdir;

Kommunikativ kompetensiya- bu muloqot qobiliyatlari, bilim, ko‘nikma malakalar, hamkorlik aloqalari sohasida hissiy va ijtimoiy



**1-rasm. Kompetensiya turlari**

tajribani o‘z ichiga olgan shaxsning umumiy kommunikativ xususiyatidir;

Ijtimoiy axborot- bu ijtimoiy ma'lumotlarni tanqidiy aql-idrok prizmasi orqali tahlil qilish va idrok etish, turli vaziyatlarda axborot texnologiyalariga ega bo‘lish va foydalanishdir;

Kognitiv- shaxsiy kompetensiya- ma'naviy o‘z-o‘zini rivojlantirishga bo‘lgan ehtiyoj va bu ehtiyojni amalga oshirish, o‘z-o‘zini tarbiyalash, takomillashtirish, shaxsiy o‘shidir.

Madaniyatlararo, jumladan, millatlararo - kompetensiya madaniyatlarni, shu jumladan o'zingizning madaniyatingizni ham tushunish va bu tushunchadan boshqa madaniyat vakillari bilan muvaffaqiyatli muloqot qilish uchun foydalanish qobiliyatini anglatadi. Madaniyatlararo kompetensiya imo-

ishoralar va suhbatdoshlar orasidagi masofa madaniyatdan madaniyatga qanday farq qilishini tushunishni o'z ichiga olishi mumkin

Maxsus- kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish, kasbiy-pedagogik vazifalarni oqilona hal qilish, faoliyat natijalarini real baholash, bilim, ko‘nikma va malakani izchil rivojlantirib borish bo‘lib, ushbu kompetentlik negizida psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion va kommunikativ kompetentlik yotadi. Bu kasbiy sohada etarli kompetensiya uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni, ushbu faoliyatda mustaqillikni va o‘z harakatlarini adekvat baholashni o‘z ichiga oladi.

Kompetentlikning strukturasi quyidagi elementlardan iborat[1]:



**2-rasm. Kompetentlik elementlari**

**Maqsad.** Kasbga yo'naltirish bo'yicha har qanday loyiha yoshlarda mehnatga ongli va ijobiy munosabatni shakllantirish shaklida o'z oldiga maqsadlar qo'yadi. Professional o'zini-o'zi belgilash, erkin, lekin ongli tanlovdir. Bu juda ishonchli dalillarga asoslanishi mumkin - bularning barchasi kasbga yo'naltirish ishining dastlabki maqsadlaridir.

**Motivatsion.** O'z kasbga qiziqish va yoqtirish, ushbu faoliyat bilan bog'liq har bir yuzaga keladigan vazifani to'g'ri qaror qabul qilish orqali hal qila olish.

**Orientatsiya.** Bu kasbiy faoliyatni ta'minlovchi, qolaversa, qo'yilgan vazifalarni muvaffaqiyatli hal etish uchun zarur bo'lgan muhim shartlardan biridir.

**Funksional.** O'zlashtirilgan bilim, ko'nikma, faoliyat usullariga nafaqat ega bo'lish, balki amalda foydalanish qobiliyatining mavjudligi. Murakkab xulosalar va qarorlardan qo'rqmaslik, noan'anaviy usullarni tanlash.

**Boshqarish.** Faoliyat jarayonida qaror va xulosalarni chiqara olish. Oldinga intilish - ya'ni g'oyalarni takomillashtirish, to'g'ri, samarali yo'l va usullarni mustahkamlash, maqsad sari harakatlanish tushuniladi.

**Baholovchi.** Tahlil qiladi, baholaydi, nazorat qiladi hamda bilim, ko'nikma yoki tanlangan harakat usuli zarurligi va samaradorligini baholay oladi.

L.A.Petrovskiyning so'zlariga ko'ra, "faol ijtimoiy-psixologik trening", "faol ijtimoiy trening", "laboratoriya mashg'ulotlari", "intensiv muloqot guruhlari", "ochiq muloqot guruhlari", "idrokga yo'naltirilgan trening", "sezuvchanlik treningi" atamaları ijtimoiy so'zlarga tengdir. Pedagogik tayyorgarlik maqsadi kompetensiyani rivojlantirish, uning kommunikativ, interaktiv va pertseptiv komponentlarini rivojlantirishga yordam beradi [4].

Trening bu vaziyatlarni tushinish, uni turli tomonlarga burish, hamma narsani tartibga solish va qiyinchiliklarni hal qilish imkoniyatidir. Trening kerakli o'zgarishlar uchun manba bo'ladigan kuchlarni beradi, bu

kelajakdagi faoliyat uchun kuchli poydevor qo'yishimkonini beradi. Hamda bevosita ishlash va shaxslararo o'zaro ta'sirda paydo bo'ladigan tajribani anglash orqali o'rganishning maxsus turi tushuniladi.

Ko'pgina tadqiqotchilarning fikricha, o'qitishda o'yin usullaridan foydalanish juda samarali. Guruh ishining birinchi bosqichida o'yinlar "psixologik himoya" ni og'riqsiz olib tashlash sharti sifatida ishtirokchilar o'rtasida qattqlik vataranglikni bartaraf etish usul sifatida foydalidir [2]. Ko'pincha o'yinlar diagnostika va o'z-o'zini diagnostika qilish vositasiga aylanadi, bu sizga muloqotda qiyinchiliklar va jiddiy muammolar mavjudligini bemalol, yumshoq, osongina aniqlash imkonini beradi. O'yin tufayli o'quv jarayoni faollashadi, yangi xulq-atvor ko'nikmalari mustahkamlanadi, boshqa odamlar bilan optimal o'zaro munosabatlarning ilgari erishib bo'lmaydigan usullari o'zlashtiriladi, og'zaki va og'zaki bo'lmagan muloqot qobiliyatlari o'rgatiladi va mustahkamlanadi. Oxir oqibat, o'yin, ehtimol, boshqa usullardan ko'ra insonning o'zini ochib berish, ijodiy salohiyatini ochish, samimiylik va ochiqlikni namoyon qilish uchun sharoit yaratishda samaralidir, chunki u inson va uning bolaligi o'rtasidagi psixologik aloqani shakllantiradi. Mashg'ulot ishida o'yin usullarining imkoniyatlari haqiqatan ham cheksizdir, shuning uchun tadqiqotchilarning o'yinlarga qiziqishi katta.

Bizning fikrimizcha, bo'lajak tarbiyachilarning ijtimoiy kompetensiyasini shakllantirish uchun eng samarali usullar quyidagilar hisoblanadi:

- Ijtimoiy kompetensiyani rivojlantirish uchun treninglar;
- Volontyorlik faoliyati;
- Samarali muloqot mashg'ulotlari;
- Innovasion texnologiyalar.

Bo'lajak tarbiyachilarning ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishda treninglar, volontyorlik faoliyati, muloqot mashg'ulotlari va innovasion texnologiyalardan foydalanish samarali natijaga erishishda muhim sanaladi.

Shulardan “Debate” (debat), “Case study” (keys stadi) kabi texnologiyalar ajoyib imkoniyat hisoblanib, ularni darsdan tashqari vaqtlarda tashkil etsa bo‘ladi. Ushbu texnologiya o‘z hatti-harakatlarini kichik guruhda muvofiqlashtirish ko‘nikmasi bilan, berilgan vazifalarni mustaqil yechish uchun turli xil muammolarni keng bilimlar doirasini jalb etishni talab etadi. Debat (munozara) bu - zamonaviy pedagogik texnologiya bo‘lib, muayyan qoidalar asosida olib boriladigan muhokamaning maxsus shaklidir. Shu bilan birga, munozara maqsadli va tartibli, tuzilgan fikr, mulohazalar va fikrlar almashinuvidir [3].

Xulosa. Shunday qilib, maktabgacha

ta'lim tashkilotlarida ta'lim jarayonini tashkil etish va ta'lim sifatini doimiy nazorat qilish ijtimoiy kompetentsiya darajasini oshirishga yordam beradi. Sifat ko'rsatkichi bo'lajak tarbiyachining ijtimoiy kompetentsiyaga ega bo'lgan o'zlashtirish darajasidir. Xulosa qilib aytganda ijtimoiy kompetentlik – olingan bilimlarga asoslangan holda ijtimoiy munosabatlarda to‘g‘ri harakat qila olishlik demakdir. Kompetentlik – ijtimoiy amaliyot ko‘rinishidagi bilim va ko‘nikmalarning mavjudligi bo‘lib, u ta’lim jarayoni natijalariga ijtimoiy-madaniy talablar va jamiyat tomonidan talablar qo‘yiladigan hollarda namoyon bo‘ladi

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Зимняя И. А. Ключевые компетенции - новая парадигма результата образования // Высшее образование сегодня №5, 2003.
2. Xalilova D. F. Talabalarda ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirishga oid kasbiy kompetentlikni takomillashtirish. Mug‘allim hom uzliksiz bilimlendirio‘ 2022. № 6/1-1.
3. Egamberdieva N. Madaniy-insonparvarlik yondashuv asosida talabalarni shaxsiy va kasbiy ijtimoiylashtirish nazariyasi va amaliyoti (Pedagogika oliy ta’lim muassasalari misolida): Dis..ped.fan.dok.– Toshkent, 2010. – 85-151 b.
4. Sh.A.Sadikova. Maktabgacha talim tashkilotlari bolalarini ijtimoiy moslashuvi (Pedagogika oliy ta’lim muassasalarining “Maktabgacha ta’lim” yo‘nalishi misolida) MONOGRAFIYA, 2021 y.